



INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASHNING MUHIM JIHATLARI

Imomov Xamdilla Xamdamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya" kafedrası dotsenti, i.f.n.

ARTICLE INFORMATION

Received: xxxx

Accepted: xxxx

Issue: 1

DOI: xxxx

KEYWORDS

investor, investitsiya, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, jozibadorlik, investitsiya dasturi, hudud, biznes yuritish, raqobat, ishlab chiqarish, modernizatsiyalash, samaradorlik, innovatsiya, kapital.

ABSTRACT

Maqolada Investitsion muhitni yaxshilash orqali jalb etuvchanlik muhitini yaratish va mamlakatda mavjud investitsion imkoniyatlarni amalga oshirishdagi muhim jihatlari yoritilgan.

Kirish

Jalb etuvchan muhitni yaratish uchun salohiyatli investorlarga mamlakatda mavjud investitsion imkoniyatlar haqida reklama-axborot ma'lumotlarini uzluksiz doimiy taqdim etish va o'tkazish kerak. Shu bilan birga chet elda investitsion ko'rgazmalar, taqdimotlar va seminarlar tashkil qilish va ularda ishtirok etish yo'li bilan xabardor qilish talab qilinadi. Xalqaro investorlar bilan ishlashda, ayniqsa, qabul qiluvchi mamlakatda umumiy iqtisodiy yoki investitsion faoliyatning normativ sharoitlarini o'zgarishi ro'y bergan hollarda axborot ko'magi zarur element hisoblanadi. Axborot sifati iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Chunki axborotning to'liqligi va ochiqligi bozordagi raqobat darajasini belgilab beradi va resurslarning agentlar tomonidan taqsimlanishi, risklarni baholash va talab qilinayotgan daromadlilik darajasini belgilab beradi. Shu bilan birga zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, ochiq axborotlarning ko'chkisimon o'sishiga olib keladi. Ma'lumotlarning dolzarbligi, uning ishonchligi darajasi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli Farmoni o'z o'rnida qabul qilinganligini ta'kidlash lozim. Mazkur farmonda global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar ta'sir qilganligi, bu esa o'z navbatida ushbu holatning salbiy ta'sirlarini yumshatish bo'yicha samarali oldini oluvchi choralar ko'rishni talab qilinishi keltirilgan[1].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda investitsiya muhitining ahamiyati borasida bir qator iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari mavjud. Jumladan, Sh.Shodmonov, U.G'afurovlarning fikricha, "Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir"[2].

Mamlakatimizning investitsion salohiyatini R.Yuldashev quyidagicha baholaydi: "O'zbekiston Markaziy Osiyoning chorrahasida joylashgan bo'lib, samarali mintaqaviy hamkorlik aloqalarini o'rnatish, mintaqaviy va transmilliy loyihalarda ishtirok etish uchun qulay transport koridorlariga ega mamlakatdir" [3].

Prof. D.G'.G'ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta'rif berib o'tgan: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi" [4].

Prof. N.H. Haydarov investitsiyalar mazmun-mohiyatiga quyidagi ta'rifni beradi: "Investitsiya – bu mulk shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir" [5].

Shu bilan birga investitsiya muhiti borasida Rossiya iqtisodchi olimlaridan T.Danko va Z.Okrut "qulay investitsiya muhitini yaratish uchun hamda ishlab chiqarishni, savdosotiqni, ilmiy faoliyatni rag'batlantiruvchi omil, mexanizm", deb biladilar [6].

Tadqiqot maqsadi va usullari. Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda investitsiya muhiti borasidagi bir qator mavjud muammolarni aniqlash bilan birgalikda ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Investitsiyalarni jalb etishda investitsiya muhiti jozibadorligini ta'minlashning asosiy maqsadi faol investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishdir.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda empirik tadqiqot usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ishbilarmonlik olamida axborotlarga talab katta, shu sababli ko'plab mamlakatlar axborot iste'molchilarining ular uchun muhim bo'lgan kerakli stereotiplarni shakllantirishga ta'sir etgan holda axborot iste'molchilarining oldida o'zining ustunliklarini targ'ib qilish borasida faol va agressiv siyosat yuritadilar. Butun mamlakat va ayrim korxonalarning ijobiy tomonini shakllantirish borasida yaxshi ishlab chiqilgan texnologiyalar mavjud. Baquvvat investitsion korporatsiyalar ortida oddiy investorlar turishini hisobga olib, potensial investorlar joylashgan mamlakatlardagi investorlarga ham O'zbekistondagi ro'y berayotgan voqea-hodisalarni o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirilishi borasida keng qamrovli amaliy ishlar talab qilinadi.

Ta'kidlash lozimki, bu borada mamlakatimizda iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruviga zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi[7].

Chet ellik investorlar bilan aloqada bo'lish uchun mas'ul bo'lgan va ixtisoslashgan davlat agentliklari yaratish amaliyoti dunyoda keng tarqalgan. Bunday agentliklar 100 dan ortiq mamlakatda amal qilmoqda. Agentliklar uchta asosiy funksiyani bajaradi:

1. Potensial investorlar ko'z o'ngida mamlakatning qulay muhitini yaratish;
2. Investitsiyalarni maqsadli jalb etishni amalga oshirish;
3. Investorlarga investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish.

Investitsiyalarni maqsadli jalb etish ularning investitsiyalari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun eng muhim deb ko'rib chiqilayotgan kompaniyalar doirasini aniqlash va investitsiyalarni amalga oshirish istiqbollari bilan tanishtirish maqsadida ular bilan bevosita aloqa o'rnatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Investitsiyalarni jalb etish bo'yicha raqobat siyosati doirasida bunday aloqalar ma'lum bir tarmoqlarga, potensial investor va kompaniyalar bilan axborot almashinishga yo'naltirilgan investitsion missiya va seminarlarni tashkil qilish hamda agentlik vakillarining ushbu kompaniyalar rahbariyati bilan uchrashuvlarini tashkil qilishda mujassamlanadi. Investorlar uchun zarur axborotlardan iborat bo'lgan umummilliy axborot tarmog'ini yaratish maqsadga muvofiq.

To'planib qolgan qarzlarni qisqartirish uchun debitor-korxona va kreditor-korxonalarga nisbatan zo'rlik va yog'lamachilik siyosatini emas balki mas'uliyatlilik darajasini iqtisodiy tomondan kattaligini bildirish siyosatini yuritish lozim. Korxonalar va ularning menejerlarini samarasiz ishlari tufayli menejerlarni almashtirishni osonlashtirish va umid qilib bo'lmaydigan qarzlarni o'z vaqtida zararlar qatoriga o'tkazish ustidan nazoratni ta'minlash zarur.

Korxonalar muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni muammosini samarali tartibga sola olishi uchun davlat zarur infratuzilma yaratishga ko'maklashishi lozim. Xususan, qarzlarni tartibga soluvchi mintaqaviy operatorlar yaratishni rag'batlantirish kerak.

O'zbekistondagi investitsion muhitni yaxshilash, ishlab chiqarish va mahsuldorlikning o'sishi uchun istiqbolda raqobat sharoitlarini tenglashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Samarasiz korxonalar davlat va mahalliy hukumat organlari tomonidan na bevosita, na bilvosita qo'llab-quvvatlanmasligi lozim. Aksincha, iqtisodiyotni yangilash uchun kuchli, samaraliroq kompaniyalarni afzal ko'rish lozim.

O'z-o'zidan tushunarlik, bu jarayon hech qachon og'riqsiz bo'lmagan va shunday bo'lib qolaveradi. O'zgarishlar jarayonining sustligi aynan shu bilan izohlanadi. Bu yerdan shunday xulosa kelib chiqadiki, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish ishdan bo'shatilgan xodimlarni qayta o'qitish va boshqa ishga joylashtirish kabi maxsus dasturlar bilan bir paytda amalga oshirilishi, shu bilan birga samaradorlikning o'sishiga to'siqchilik qilmasligi lozim.

Mohiyatiga ko'ra, bu islohotlarning eng muhim tarkibiy qismlari quyidagi sa'y-harakatlar hisoblanadi:

- mulkchilik huquqini himoya qilish;
- korporativ boshqaruvni mustahkamlash;
- shartnomani bajarish intizomini kuchaytirish;

- kichik biznesni qo'llab-quvvatlash;
- bank tizimi va moliya bozori institutlarini rivojlantirish;
- tabiiy monopoliyalarni isloh qilish;
- yer islohotini o'tkazish.

Shu tariqa to'laqonli investitsion infratuzilmani yaratilishi jalb etuvchanlik muhitni yaratish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi bosqichda qulay investitsion muhit iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun bosh vazifa hisoblanadi, usiz ijtimoiy muammolarni hal qilish va sanoati rivojlangan mamlakat sifatida O'zbekistonning maqomini qo'llab-quvvatlashga imkon beradigan ilmiy-texnik salohiyatni saqlashning imkoni bo'lmaydi. Investitsion muhitni tubdan yaxshilash talab qilinadi, chunki 2017-yildan boshlab kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlarga qaramay, u jozibasiz bo'lib qolaveradi[8].

Ko'plab jarayonlar, masalan, ma'muriy buyruqbozlik, korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yish, sud tizimining ishonchli ishlashini ta'minlash, korruptsiyani bartaraf qilish va boshqa institutsional o'zgarishlar uzoq muddatli xarakterga ega. Prinsipial va oqilona siyosat vaziyatni tez, doimiy va beto'xtov yaxshilashga olib keladi. Shunda investorlarda bugungi kun kechagi kundan yaxshi, ertaga esa bugundan ham yaxshiroq bo'lishiga ishonch hosil bo'lishi tayin. Shuning uchun davlatning iqtisodiy siyosatida investitsiyalarni, jumladan, chet el investitsiyalarini jalb etish va jamg'armalarni rag'batlantirishda uzoq muddatli strategiya talab qilinadi.

Davlat investitsiyalari, infratuzilma va iqtisodiyotning potensial raqobatbardosh sektorlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi bir muncha ijobiy natijalar berishi muqarrar. Biroq shu narsa aniq bo'lishi kerakki, zarur resurslar va ular talab qilinadigan tarmoqlarga samarali darajada ishlatilishini nazorat qilish lozim. Bundan xorijiy va mahalliy investitsiyalarga ko'proq e'tibor qaratish kelib chiqadi. Ular esa qulay investitsion muhitni talab qiladi.

Ko'p hollarda investitsiyalar samaradorligidan ko'ra ularning hajmini ko'pligi investitsiyalar samaradorligi deb qaraladi. Gap shundaki, investitsiyalar yetishmasligi bizni avvalo, investitsiyalar hajmini oshirishga undaydi. Biroq aslida biz samaradorlikni afzal ko'rishimiz lozim, chunki reja asosidagi iqtisodiyotdan bozor xo'jaligiga o'tishda kuzatiladigan investitsion rejimlarni almashtirish jarayoni yakunlanmagan. Shuning uchun ham hozirda barcha investitsiyalar bir xilda foydali bo'lavermaydi. Korxonalar, jumladan, mahalliy investitsiyalar-ning katta qismi ham samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha past bo'lib kelmoqda. Albatta, investitsiyalar hajmi qanchalik katta bo'lsa, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari loyihalar sifatli bajarilganda shunchalik yuqori bo'ladi. Hajmning o'sishi bilan moliyalashtirilayotgan loyihalar ro'yxatiga kiritilishi mumkin bo'lgan loyihalar soni ortadi. Biroq bu ro'yxatda birinchi o'rinlarni eng samarali loyihalar egallashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi paytlarda iqtisodiy o'sish uchun iste'mol talabini rag'batlantirish va aholining pul daromadlarini oshirish kerak degan nuqtayi nazar keng tarqaldi. Hatto oylik maoshlarni birdaniga ikki baravar oshirish takliflari ham berildi. Shuni yodga olish keraki, aholining daromadlari mehnat mahsuldorligi va ishlab chiqarishning o'sishi bilan bir paytdagina real o'sishi mumkin. Boshqa yana bir usul – pulni ko'proq bosib chiqarish va nominal pul daromadlarini yeb yuboradigan narx o'sishini kutish, bu biz uchun keragi yo'q.

Xulosa. Agar biz investitsiyalarni jalb etish yoki rag'batlantirish haqida gapiradigan bo'lsak, buni qanday qilgan ma'qulroq ustuvor loyihalar yoki investorlarga biron-bir imtiyoz berish hisobigami yoki hamma uchun bir xil qulay sharoitlar yaratish hisobigami degan savol tug'iladi. Savol juda ham o'rinli, chunki, birinchidan, muayyan imtiyozlar, maxsus sharoitlar taqdim etish osonroq va ulardan tezroq samara olish mumkin. Biz uchun aynan shunday amaliyot ko'proq xarakterli.

Yuzaga kelgan vaziyatda investorlar uchun ayrim imtiyozlarni, masalan, soliq kodeksida ko'zda tutilgan investitsion soliq kreditini qo'llamaslikning imkoni bo'lmaydi. Biroq, qoidaga ko'ra, investitsiyalar uchun sharoitlarni umumiy yaxshilash, masalan, soliqlar

bo'yicha imtiyozlar o'rniga soliq yukini umumiy pasaytirish samaraliroq bo'ladi.

Kapital oqimining chiqib ketishini to'xtatish uchun nima qilish kerakligi asosiy muammolardan bo'lib kelmoqda. Bu yerda ikkita tamomila har xilli yondashuvlar mavjud, biroq ular bir-birini to'ldirib turadi.

Birinchi yondashuv – ma'muriy cheklovlar va davlat nazoratini kuchaytirish.

Ikkinchi yondashuv – kapitalni olib chiqib ketish foydasiz bo'lishi uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlar yaratish muhimroq va istiqbolliroq hisoblanadi. Biroq kapital oqimining tarkibiy xususiyatlarini, uning turli tarkibiy qismlarini hisobga olish lozim. Ular esa quyidagicha:

-oshkora yoki yarim oshkora (ya'ni soliq to'lashga tayyor) kapital – siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikdan, mulk huquqiga solinayotgan

tahdidlar va transaksiya xarajatlarining yuqoriligidan qochish maqsadida ishonchliroq va foydaliroq joylashtirishni izlaydi;

-noqonuniy yo'l bilan ishlab topilgan pullarni "yuvish" maqsadida kapital oqimi kelib chiqishi.

Birinchi oqimning keskin o'zgarishi qulay investitsion muhit yaratish vazifasining o'zi bilan bir xil ahamiyatga ega.

Shuningdek, investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha ishlarda ustuvorliklarni ham belgilash lozim. Ekspertlar fikriga ko'ra korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurash, sud tizimining mustaqilligini ta'minlash va mustahkamlash, mulk huquqini himoya qilish va korporativ boshqaruvni yaxshilash, O'zbekiston korxonalarining chet ellik investorlar va kreditorlar uchun "shaffof"ligi investitsion muhitni yaxshilashning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli Farmoni // Xalq so'zi, 2020-yil 20-mart.
2. Sh.Shodmonov, U.G'ofurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: Iqtisodmoliya, 2010. 347 bet.
3. Юлдашев Р.З.Инвестиционное обеспечение приватизированных предприятий в Узбекистане: управленческий аспект. Монография. Т.: Иқтисодиёт, 2009. — 93-С.
4. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: "Moliya" nashriyoti. 2013. 26 bet.
5. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: 2003. 29 b.
6. Данько Т.П., Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. –М.: «ИНФРА-М», 1998. – С. 31.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida PF-5635-sonli Farmoni. 2019-yil 17-yanvar, "Halq so'zi" gazetasi -1-2 b. 18.01.2019-y.
8. Imomov H.H. Investitsiya innovatsiyalar O'quv qo'llanma. – Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi». 2021-y.